

O‘ZBEK ETNOMADANIYATIDA IJTIMOIIY MUNOSABAT AN‘ANALARI

Rustam Abdullayev,

O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti
Folklor va etnografiya kafedrasi dotsenti, v.v.b. professor

Annotatsiya. Ushbu maqolada etnomadaniyatimizda ijtimoiy munosabatlarning vujudga kelishi, xalqning ijtimoiy birlik sifatida shakllanish bosqichlari, o‘zbek xalqi etnogenizini o‘rgangan olimlar, qadimda qabilalar o‘zlarini hayotlarini bir hudud va shahar, joy nomlari bilan bog‘lab kelganliklari, iqtisodiy xo‘jalik birligi etnos shakllanishida muhim rol o‘ynagani, hozirgi davrda xalq, millat va oilaning mavjudligini davlatsiz tasavvur etib bo‘lmasligi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: etnologik va etnosotsial jihatlar, xalq ertaklari, oilaning shakllanishi, diaxron munosabatlar, avlodlararo munosabatlar.

KIRISH

Oila institutining ijtimoiy tarixiy, huquqiy, sotsiodemografik shakllanishi borasida ko‘plab tadqiqotlar o‘tkazilgan bo‘lsada, uning etnologik va etnosotsial nuqtai nazardan tahlili deyarli amalga oshirilmagan.

To‘g‘ri, bunday tahlilga oid materiallar barcha tadqiqotlarda uchraydi, ammo ular ma‘lum bir ilmiy, falsafiy konsepsiya nuqtai nazaridan jamlanmagan va tahlil qilinmagan. Bundan tashqari, etnologiya o‘zining metodologiyasi va usullariga ega fan sifatida, etnosotsial munosabatlar esa milliy o‘zlikni anglash, ijtimoiy borliqni ana shu fenomen orqali yangilashga qaratilgan jarayonlar sifatida endigina e‘tirof etilmoqda. Bizni oiladagi avlodlararo (diaxron) munosabatlar, ularning dinamikasi, ijtimoiy munosabatlar tizimidagi o‘rni va oilaning mikrojamiyat, maxsus institut sifatida shakllanish jarayonlariga ta’siri qiziqtiradi. Etnologik va etnosotsial tahlil mazkur yondashuv nuqtai nazaridan amalga oshiriladi.

Etnologiya xalqlar, ularning shakllanishi, ijtimoiy madaniy hayoti, millatning shakllanishiga ta'siri, o'ziga xos hayot tarzi va urf-odatlarini o'rganuvchi fan sohasidir. Xalqning ijtimoiy birlik sifatida shakllanish bosqichlarini tadqiq etish etnologiyaning predmeti hisoblanadi. Bu jarayonlar etnosotsial munosabatlarsiz kechmaydi. Demak, etnologik va etnosotsial tahlil ayrim voqeliklar, hodisalar sifatida emas, balki dialektik uyg'unlikda amalga oshiriladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Oilaning institutsional shakllanishida erkak va ayol, ular o'rtasidagi jinsiy, ma'naviy axloqiy va mulkiy munosabatlar hal qiluvchi rol o'ynaydi. Mazkur munosabatlar esa ma'lum bir madaniy etnik va ijtimoiy muhitda shakllanadi, kechadi. Shu nuqtai nazardan oilaning institut sifatida shakllanishi mazkur munosabatlarning tadrijiy mahsuli hisoblanadi.

Tadqiqotchilarning etnologik muammolarni ibtidoiy davrdan boshlab o'rganishlarida ma'lum bir ma'no bor. Aynan ushbu davrdagi mifologik, animistik va totemistik tasavvurlar, qarashlar etnoslarning keyingi taraqqiyotida muhim rol o'ynagan. Bu tasavvurlar va qarashlarning yuz million yillar, to "Homo sapiens" paydo bo'lganiga qadar davom etganini, shakllanganini eslasak, ularning ahamiyati hanuzgacha saqlanib qolayotganining boisini to'g'ri anglaymiz. Shuning uchun mif, mifologik tasavvurlar inson hayot tarzining, u yaratgan madaniyatning atributiga aylangan. Hatto, etnograflarning ta'kidlashicha, odamning qarashi (nigohi), chiqaradigan tovushi (talaffuzi), mimikasi ham etnologik belgilarga ega. Shunday ekan, har qanday jinslararo va avlodlararo munosabatlarda etnologik xususiyatlar bo'lishi tabiiy holdir.

Jinlararo munosabatlar avlodlararo munosabatlardan avval paydo bo'lgan. Jinsiy munosabatlar avlodlararo (diaxron) aloqalarning ibtidosi, birinchisi inson o'zini ongli mavjudot sifatida anglamagan davrlarda ham mavjud edi. Xalq ertaklari va miflarda yarim odam, yarim hayvon mavjudotlarning tasvirlangani besabab emas,

ilk odamlar o'zini hayvonot olami bilan uzviy qaragan.

Masalan, turk xalqlari mifologiyasidagi Alvasti obrazi badbashara ayol. Zarafshon vohasida u "sariq qiz" deb atalgan. Alvasti istagan paytida hayvonga yoki boshqa jonsiz predmetlarga aylanishi mumkin bo'lgan. Qozonlik tatarlar uni echkiga, somon to'plamiga, daraxtga, qozoqlar esa otning tuyog'iga aylanadi, deb bilganlar. Ko'pincha u bir ko'zli mavjudot sifatida tasvirlangan, odam bilan jinsiy munosabatlar o'rnatishi mumkin bo'lgan. Bunday zoomorf va teramorf belgili mavjudotlar, odamlar obrazlari deyarli barcha xalqlar mifologiyasida uchraydi. Ba'zi qabilalarning, elatlarning nomlari u yoki bu hayvon, jonivorlar bilan atalishi ham shundandir.

Ushbu eponimik ("epoma", yunoncha so'z bo'lib, nom demakdir) miflardagi animistik tasavvurlarni mashhur etnograf E.B. Taylor boy empirik materiallar asosida ochib bergan [2].

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Avlodlararo munosabatlar esa keyingi ijtimoiy tarixiy bosqichlarda, ya'ni oila bo'lib yashash, farzandlar tarbiyalash va ular haqida qayg'urish ongli faoliyatga aylanganida paydo bo'lgan. Ibtidoiy instinktlarning ongli faoliyat tarziga aylanishi, avlodlararo munosabatlarga tayanibgina oila institutini asrash mumkin, degan fikr, g'oyaning shakllanishi uchun million yillar kerak bo'lgan. Ushbu uzoq tarixiy madaniy jarayon inson ongida, tasavvurlarida shunday o'chmas iz qoldirganki, oila va an'analarni qancha marta nigilistcha rad etishga harakat qilingan bo'lsa-da, insoniyat ulardan voz kechmadi.

Xo'sh, oila va avlodlararo munosabatlar etnologik va etnosotsial nuqtai nazardan qanday genezislariga ega? Nimalar ularning tarixiy madaniy paradigмага aylantirgan? Mazkur savollar bizni o'zbek xalqi etnogeneziga nazar tashlashga, mavjud ilmiy va amaliy tajribalarni retrospektiv tahlil qilishga undaydi.

O‘zbek xalqi etnogenezini o‘rganishga V. Yakubovskiy, G.A. Pugachenkova, E.V. Rtveladze, A. Asqarov, K. Shoniyozov, I. Jabborov kabi tarixchi, etnograf olimlar katta hissa qo‘shishgan. Etnografik va arxeologik topilmalarning har biri o‘zbek xalqi etnogenezi haqida o‘ziga xos axborot beradi, ularga tayanmay biz mavzuni retrospektiv ochib berolmaymiz. O‘rni kelganida shuni aytib o‘tishimiz lozimki, muammoga tarixiy, retrospektiv yondashuv bizga ko‘p ham ma‘lum bo‘lmagan, goho tadqiqotchilar e‘tiboridan chetda qolgan jihatlarni topishga va shu tarzda mavzuga oid qarashlarni boyitishga yordam beradi. Tarixiy madaniy taraqqiyot tadrijiy tarzda davom etib kelayotgan bo‘lsa-da, uning barcha jihatlarini ilg‘ash, ochib berish imkoni yo‘q, shuning uchun har bir mavzuga tarixiy, retrospektiv nazar tashlash ob‘ektiv ilmiy talabga aylangan. “Xalq tarixining etnogenez qismi, deb yozadi O‘zbekiston FA akademigi A. Asqarov, uning elat, xalq bo‘lib shakllanishiga qadar bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Etnogenezning boshlang‘ich nuqtasi, uning ibtidosi qabiladan boshlanadi.

Agar biz O‘rta Osiyoning eng qadimgi o‘troq, tub joy aholisi o‘zbek va tojik xalqlari misolida oladigan bo‘lsak, u holda o‘zbek va tojik xalqlari etnogenezi kishilik jamiyati tarixiy taraqqiyotining ibtidoiy jamoa tuzumi oxiridan (so‘nggi bronzadan) boshlanib, to rivojlangan feodal jamiyatining XI asrigacha davom etadi. Etnogenez yakunida etnosga xos barcha etnik belgilar, etnik alomatlar birin-ketin yuzaga chiqib, mujassamlashgan bo‘ladi. Etnik alomatlarni esa hududiy birlik, iqtisodiy xo‘jalik birligi, etnomadaniy birlik, antropologik tip birligi, etnik nom, o‘zlikni anglash, til birligi va nihoyat siyosiy uyushma birligi tashkil etadi” [5].

Hurmatli akademigimiz A. Asqarov bu jarayonni birinchi, feodal jamiyatiga oid jarayonni ikkinchi va feodal tuzumdan keyingi jarayonni uchinchi bosqich, deb ko‘rsatadi. Demak, mavzuga tarixiy, retrospektiv nazar tashlash uni mazkur etnik shakllanish va rivojlanishga muvofiq tahlil qilishni taqozo etadi.

Etnologik nuqtai nazardan mavzu [6]:

- hududiy birlik;
- iqtisodiy xo‘jalik birligi;
- etnomadaniy birlik;
- antropologik tip birligi;
- etnik nom;
- o‘zlikni anglash;
- til birligi;
- siyosiy uyushma birligi va etnosotsial nuqtai nazardan esa quldorlik, feodal, kapitalistik, sotsialistik va fuqarolik jamiyati munosabatlari sintezi orqali qaralishi mumkin.

Tan olishimiz kerakki, etnosotsial munosabatlardagi quldorlik, kapitalistik, sotsialistik bosqichlar turli savollar va bahslar uyg‘otishi mumkin. Tarixiy madaniy taraqqiyotimizning feodal tuzumi va hozirgi bosqichlarigacha bo‘lgan etnosotsial munosabatlar qanday kechgani haqida biror asosli fikr yo‘q. Ko‘pgina tadqiqotchilar u yoki bu tarzda eski marksistik formatsiyalarni takrorlashadi, ba‘zilari esa ular haqida umuman gapirishni lozim topishmaydi. Agar biz tarixiy madaniy bosqichlarning har biri o‘zining xususiyatlari va qonunlariga ega bo‘lganini tan olsak, u paytda har bir bosqichda qanday etnosotsial munosabatlar ustuvor bo‘lganini aniq bilishimiz darkor, aks holda har qanday etnogenez va etnosotsial munosabatlar haqidagi fikrlar asossiz chiqaveradi. Etnologik tadqiqotlarning hududiy birlikka e’tibor berishi bekorga emas.

Qadimdan qabilalar va urug‘lar o‘zini, hayotini ma’lum bir hudud, jug‘rofiy makon, shahar, joy nomlari bilan bog‘lab kelgan. Masalan, samoslik Pifagor, efesslik Geraklit, kiprlik Zenon, yunonlik Zenon, elidlik Pirron, laertlik Diogen, sinoplik Diogen, bolosog‘unlik Yusuf (Yusuf Bolosog‘uniy), buxorolik Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil (Imom al Buxoriy), termizlik Abu Iso Muhammad ibn Iso (Imom at Termiziy), samarqandlik Abu Muhammad Abdulloh ibn Abd ar

Rahmon ad Dorimiy (as Samarqandiy) shular jumlasidandir.

Markaziy Osiyoda toponomik tadqiqotlar olib borgan V.A. Nikonov, V.N. Toporov, H. Hasanov, E. Begmatov, T. Nafasov, S. Qoraev, Z. Do'simov, X. Egamov, N. Oxunovlar o'lkamiz xalqlari o'zining ijtimoiy iqtisodiy va xo'jalik hayoti tiplarini o'troq va ko'chmanchi aholi madaniyatiga muvofiq yaratganlarini ta'kidlashadi. Suv havzalariga yaqin joylarda yashagan qabilalar va elatlar asosan dehqonchilik bilan kun kechirgan, ular o'troq yashashgan. Dasht va qirlarda yashovchi qabilalar va elatlar esa chorvachilik, yilqichilik bilan shug'ullanishgan, ular bir joydan ikkinchi joyga ko'chib yurishgan. To hanuzgacha dehqonchilik va chorvachilik o'lkamiz ijtimoiy iqtisodiy hayotida, etnosotsial munosabatlarida ustuvor o'rinni tutadi. Bu an'ananing saqlanishida etnik tasavvurlar va hayot tarzi hal etuvchi rol o'ynagan. Avlodlararo munosabatlar mazkur an'anaga qurilgan.

XULOSA VA MUNOZARA

Bugun xalq, millat va oilaning mavjudligini davlatsiz tasavvur etib bo'lmaydi, biroq bu xalq, millat va oilaning siyosiy institutga qaramligini anglatmaydi. Ular nisbatan mustaqil ijtimoiy birliklar sifatida o'zining funksional vazifalarini bajarishga da'vat etilgan. Bugun davlat instituti xalq, millat, oila va avlodlararo munosabatlarga signifikativ (integratsiyalashuv va differensiallashuv jarayonlarini uyushtirish orqali) ta'sir etadi, natijada yuqoridagi ijtimoiy birliklar o'zining nisbatan mustaqilligini saqlagan holda vorisiylik tamoyiliga muvofiq faoliyat ko'rsatadi. Mazkur tamoyil negizida, buni alohida esda saqlab qolish kerak, har bir ijtimoiy birlik o'z manfaat va ehtiyojlarini mutlaqlashtirishi emas, balki ularni jamiyat hamda taraqqiyot talablariga integratsiyalashib yashashi yotadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Semenov Yu.I. Nikoh va oilaning kelib chiqishi. - Moskva: Nauka, 2014.
2. Mead M. Madaniyat va bolalik dunyosi. Tanlangan asarlar. – Moskva: Ch.

ed. Sharq Adabiy, 2018.

3. Ubaydullaeva R.A. O'zbekistonda oila. – Toshkent: 2022 yil.
4. Ashirov A., Axmadjonov Sh. Etnologiya. – Toshkent: Fan, 2017.
5. Ashirov A. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. – Toshkent: Fan, 2007.
6. Payziev M. O'zbek motam marosimlari. – Toshkent, Fan, 2014.
7. O'zbekiston xalqining dini, madaniyati va urf odatlari: tarix va hozirgi holati. – Toshkent, Navro'z, 2011.